

## YOSHLARNING ZAMONAVIY QIZIQISHLARI VA ULAR BILAN BOG‘LIQ MUAMMOLAR

**Saydullayeva Ismigul**

*JDPU Xorijiy tillar ingliz tili yo‘nalishi  
1-kurs talabasi 742-24 guruh talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yoshlarning dunyoqarashidagi eng keng tarqalgan ijtimoiy tarmoqlar, axborot texnologiyalari kabi ommaviy qiziqishlar hamda moyilliklar haqida fikr yuritiladi va ulardagi muammolar borasida qilinishi kerak bo‘lgan zarur ishlar bo‘yicha takliflar kiritiladi.

**Kalit so‘zlar:** *Dunyoqarash, zamonaviy qiziqishlar, muammolar, tarbiya, bandlik, nazorat.*

**Аннотация.** *В данной статье обсуждаются наиболее распространенные социальные сети, информационные технологии и другие общественные интересы и тенденции в мировоззрении молодежи, а также вносятся предложения по необходимой работе в отношении их проблем.*

**Ключевые слова:** *Мировоззрение, современные интересы, проблемы, образование, занятость, контроль.*

**Abstract.** *This article reflects on the most common interests and trends in the worldview of young people, such as social networks and information technology and makes suggestions on what needs to be done about their problems.*

**Key words:** *Worldview, modern interests, problems, education, employment, control.*

Mustaqillikdan so‘ng boshqa jahon mamlakatlari kabi bizda ham rivojlanib borayotgan taraqqiyot sohalarida yoshlarni har tomonlama fikrlay oladigan, fan-texnika, jahon andozalariga javob beradigan, har jabhada ustun va ilg‘or bo‘lgan, o‘z fikrini erkin ayta oladigan va har ishga dadillik bilan kirisha oladigan qilib tarbiyalash eng muhim va dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi va shuning uchun ham yoshlarning axborot almashishi, barcha sohalarda istalgan axborotni topa olishi, bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilib kelinmoqda. Ommaviy axborot vositalari bo‘lmish kino, televideniye, musiqa va internet, bundan tashqari yoshlarning doimiy hamrohi bo‘lgan ijtimoiy tarmoqlar ularning qiziqishlari va moyilliklarini aniqlashda eng muhim omil bo‘lib qolmoqda. Hozirgi kunda yoshlarning qiziqishlari ixtiyoriy va ixtiyorsiz ravishda ommaviy axborot vositalari va global ijtimoiy tarmoqlarga bog‘lanib qolmoqda. Bu esa jamiyatning raqamlashtirilayotgan va axborotlashtirilayotgan bir paytda bugungi kun yoshlaridan ham

barcha yangilik va xabarlardan ogoh bo‘lish va ularga befarq bo‘lmasdan o‘z fikr va mulohazalarini erkin bildirishi va jamiyatda faol bo‘lishi talab etiladi.

Yoshlarning qiziqishlari yildan yilga o‘zgarib bormoqda va ularning axborot va ijtimoiy tarmoqlarga bo‘lgan ehtiyoji ortyapti. Bunga sabab qilib qog‘oz shakldagi hujjatlarga, ma‘lumotlarga, darsliklarga bo‘lgan talabning kamayishini aytish mumkin, ya‘ni kitoblar va barcha muhim ma‘lumotlarni bozor yarmakalaridan izlab va ma‘lum bir narx asosida sotib olgandan ko‘ra, oson, tez va bepul bo‘lgan online platformalar, saytlardan topish ancha qulay hisoblanadi. Hozirda barcha hujjatlar, kitoblar, darsliklar va yangiliklar ijtimoiy saytlarda mavjud va hatto uyda o‘tirgan holda pul topish imkoniyati ham yaratilgan. Bu raqamlashtirish, ya‘ni o‘quv jarayonlarining, tashkilot, kompaniya va qolgan barcha ijtimoiy va iqtisodiy ishlarining online shaklda shaffof va tez o‘tkazilishi jamiyatdagi barcha insonlar va shubhasiz, yoshlar uchun ham katta imkoniyatdir. Ijtimoiy tarmoqlardagi yoshlar internetdan o‘ziga kerakli barcha ma‘lumotlarni topa olishi, yangiliklardan xabardor bo‘lishi, chet tillarini o‘rganishi va barcha qiziqish, bilimlarini shakllanirishi mumkin, lekin hamma birday bo‘lmagani va birday fikrlamagani sababli ham bu kabi imkoniyatlardan noto‘g‘ri foydalanayotganlar va vaqtini behuda o‘tkazayotgan yoshlar ham yo‘q emas. Bunga sabab qilib yoshlarga internet haqida boshlang‘ich talablarning qo‘yilmagani, tushunchalarning berilmagani va kattalar tomonidan nazoratga olinmaganini aytish mumkin.

Shubhasiz, yoshlar tarbiyasi, dunyoqarashi bolalikdan oila muhitida shakllanadi. Shu sababli ham ularga dastlabki muhim bo‘lgan tushunchalarni berish, ongiga singdirish ota-onaning, mahallaning va kerak bo‘lsa butun bir jamiyatdagi insonlarning asosiy vazifasidir. “Ustoz ko‘rmagan shogird har tomonga yo‘rg‘alar” deganlaridek, eng birinchi o‘rinda ota-onalarning o‘z farzandlarini nazoratga olishi, muhim bo‘lgan tushunchalarni berishi ularning kelgusida bu kabi imkoniyatlardan oqilona foydalanishini ta‘minlab beradi.

Davlatimiz tomonidan yoshlarning qiziqishlari, muammolari o‘rganilmoqda va bu muammolarni bartaraf etish uchun keng shartsharoitlar yaratilmoqda. Yurtimizda yoshlarning bandligini ta‘minlash va bo‘sh vaqtini unumli o‘tkazish maqsadida to‘garaklar, kitobxonlik tanlovlari o‘tkazib kelinmoqda, ularning iste‘dodini ro‘yobga chiqarish uchun “Besh tashabbus” doirasidagi musobaqalar, olimpiadalar va sport o‘yinlari tashkil etilmoqda. Ma‘lumot o‘rnida aytish joizki, 2019-2022-yillarda mamlakatimizda 826 ta madaniyat markazi, 20 mingdan ziyod umumta‘lim maktablari, yoshlarni madaniyat va san‘atga jalb qilishga xizmat qiluvchi 41 mingdan ziyod to‘garaklar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. 149 mingdan ortiq sport to‘garaklari tashkil etilib, ularga 2.7 millionga yaqin o‘g‘il-qiz qamrab olindi. Shunday ekan, ularga muhim imkoniyatlarni yaratib berish,

qiziqishlarini o‘rganish va ularga mos ravishda ish ko‘rish, muammolarni bartaraf etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Jahonda har yili 24-aprel “Xalqaro yoshlar birdamlik kuni” nishonlanadi. Bu kunning asosiy vazifasi yoshlarning muammolarini hal etishga qaratilgan. Yaratilayotgan mana shunday ilg‘or sa‘y-harakatlarga qaramay bugungi kunda yoshlar o‘rtasidagi muammolar anchayin ko‘p. Shubhasiz, yoshlar muammosi eng e‘tibortalab mavzu hisoblanadi. BMT ning ma‘lumotlariga ko‘ra, jahonda 15 dan 24 yoshgacha bo‘lgan yoshlar hamon ishsizlik va qashshoqlik qarshisida ojizdirlar. Yana bir ommaviy muammolardan biri haddan ortiq ijtimoiy tarmoqlarda ko‘p vaqt o‘tkazishdir. Albatta, bu kabi muammolarni birdan bartaraf etishning iloji yo‘q, lekin sekinlik bilan ularni boshqa foydali va manfaatli ishlarga jalb etish yoki oldini olish mumkin. Ortiqcha internet qarshisida bo‘lish yoshlar uchun ham jismoniy, ham ruhiy tomondan juda xavflidir. Davlatimiz mana shu muhim masalalarni bilgani holda ish ko‘rish va yoshlarning bandligini ta‘minlash chora-tadbirlarini amalga oshirmoqda, chunki yoshlarning bandligi bu ko‘p muammolarning yechimi bo‘lishi mumkin. Bekorchilik, dangasalik va loqaydlik kabi illatlar turli kasallik, qashshoqlik va omadsizliklarning sababchisi bo‘lishi mumkin. Bunday illatlarga muhtalo bo‘lgan yosh avlod o‘ziga xoh bugun, xoh kelajakda kelayotgan jamiki muammolarga befarqlarcha “quchoq ochadi”, o‘zini himoya qila olmaydi. Shu o‘rinda aytish joiz, ma‘rifatparvar A.Avloniy aytganidek, “Har bir millatning saodati, davlatning tinchi va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog‘liq. Bu tarbiya uchun esa butun bir jamiyat mas‘uldir”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev esa yoshlarga qarata: “Yoshlik – g‘animat, vaqt – g‘animat, fursat borida otni qamchilang! Davlatimiz, xalqimiz yaratib berayotgan imkoniyatlarning qadriga yeting! Dunyoga o‘z so‘zingizni ayting!”- dedi va quyidagi so‘zlarini ham yodga olish o‘rinlidir: “Najot – ta‘limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda!” Yosh avloddan, shubhasiz, mana shunday imkoniyatlarga loyiq va munosib bo‘lish, ulardan unumli foydalanish, dunyoqarashlarini kengaytirish va jamiyatga yetuk shaxs bo‘lib yetishish talab etiladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, yoshlarning dunyoqarashlari va qiziqishlari turlichaligini hamda ularni rivojlantirish va kengaytirish imkoniyatlarini ko‘rish mumkin. U bevosita yoshlarning o‘ziga ham, atrofidagi muhitga va jamiyatga ham bog‘liq. Ularning iste‘dodlarini, intilishlarini to‘g‘ri, foydali va ilg‘or yo‘llarga yo‘naltirishga butun bir jamiyat mas‘ul va javobgardir. Dunyoqarashdagi muammolar talaygina, ammo yoshlarning o‘zi va butun bir jamiyat birlashib harakat qilgandagina muammolar “bo‘yin egadi” va bartaraf etiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Kun.uz
2. 2020. “Yangi O‘zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati.  
DM.
3. Vol. 2 No. 21 (2023) INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL  
SOLUTIONS and innovative digital tools.
4. Xabar.uz